



LEXICAL-SEMANTIC PROPERTIES OF THE CONCEPT OF "TIME"

Rakhimova Umida Solieva

Docent, PhD, Urgench Ranch Technological University,

Babaniyazova Dilnoza Marksova

Postgraduate student, Urgench Ranch Technological University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14271752>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2024

Accepted: 29th November 2024

Online: 30th November 2024

KEYWORDS

Time, concept, phraseological units, linguistics, lexical units, expressions, proverb, abstract, objective, comparative analysis.

ABSTRACT

This article analyzes the semantic structure of the concept of time in Uzbek and English. Time is considered an abstract, variable and dimensional concept in linguistics. In Uzbek, time is expressed more in a cultural, historical and social context, and is reflected in folk proverbs and idiomatic expressions. In English, the word "time" is used more universally, dimensionally and metaphorically. The article compares phraseological units, synonyms and antonyms related to time in Uzbek and English, and also studies cultural and linguistic features through a comparative analysis of the concept of time in both languages. The article presents an analysis of lexical units and expressions that show the importance of time in human life, its connection with values and labor.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОНЦЕПТА «ВРЕМЯ»

Рахимова Умида Солиевна

Доцент и.о, PhD, Ургенч Ранч Технологический университет

Бабаниязова Дилноза Марксовна

Магистрант, Ургенч Ранч Технологический университет

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14271752>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2024

Accepted: 29th November 2024

Online: 30th November 2024

KEYWORDS

Время, понятие, фразеологизмы, языкознание, лексические единицы, выражения, пословица, аннотация, предметный, сопоставительный анализ.

ABSTRACT

В данной статье анализируется семантическая структура концепта времени в узбекском и английском языках. В лингвистике время рассматривается как абстрактное, изменчивое и размерное понятие. В узбекском языке время выражается больше в культурно-историческом и социальном контексте, находит свое отражение в народных пословицах и идиоматических выражениях. В английском языке слово «время» используется в более универсальном, размеренном и метафорическом смысле. В статье сравниваются фразеологизмы, синонимы и антонимы, относящиеся к времени, в узбекском и английском языках, а также путем сравнительного анализа



изучаются культурно-лингвистические особенности концепта времени в обоих языках. В статье представлен анализ лексических единиц и словосочетаний, показывающих значение времени в жизни человека, его связь с ценностями и трудом.

“VAQT” TUSHUNCHASINING LEKSIK – SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Raximova Umida Solieva

Dotsent v.b, PhD, Urganch Ranch texnologiya universiteti

Babaniyazova Dilnoza Marksova

Magistrant, Urganch Ranch texnologiya universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14271752>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2024

Accepted: 29th November 2024

Online: 30th November 2024

KEYWORDS

Vaqt, konsept, frazeologik birliklar, tilshunoslik, leksik birliklar, iboralar, maqol, abstrakt, obyektiv, qiyosiy tahlil.

ABSTRACT

Mazkur maqolada vaqt tushunchasining o'zbek va ingliz tillaridagi semantik tuzilishi tahlil qilinadi. Vaqt tilshunoslikda abstrakt, o'zgaruvchan va o'lchovli tushuncha sifatida qaraladi. O'zbek tilida vaqt ko'proq madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstda ifodalanib, xalq maqollarida va idiomatik iboralarda o'z aksini topadi. Ingliz tilida esa “time” so'zi ko'proq universal, o'lchovli va metaforik tarzda ishlatiladi. Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi vaqtga oid frazeologik birliklar, sinonimlar va antonimlar taqqoslanadi, shuningdek, vaqt tushunchasining har ikki tilda qiyosiy tahlili orqali madaniy va lingvistik xususiyatlar o'rganiladi. Maqola vaqtning inson hayotidagi ahamiyatini, uning qadriyatlar va mehnat bilan bog'liqligini ko'rsatadigan leksik birliklar va iboralar tahlilini taqdim etadi.

KIRISH

Vaqt tushunchasi inson tafakkurining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, u tilda o'z ifodasini topadi. O'zbek tili, boshqa tillar qatori, zamon munosabatlarini ifodalovchi leksik birliklar va grammatik tuzilmalarga boy. O'zbek tilidagi vaqt tushunchasi xalqning boy madaniy va tarixiy an'alarini o'zida aks ettiradi. Vaqt bilan bog'liq leksik birliklar, frazeologiya va grammatik tuzilmalarni o'rganish ona tilida so'zlashuvchilarning mentaliteti va dunyoqarashini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

“Vaqt” tushunchasi barcha tillar va madaniyatlar uchun eng asosiy va universal tushunchalardan biridir. Biroq, universalligiga qaramay, har bir tilda so'zlashuvchilarning madaniy, tarixiy va kognitiv xususiyatlarini aks ettiruvchi ushbu tushunchani ifodalashning o'ziga xos usullari mavjud. Vaqt – universal tushuncha bo'lib, u barcha madaniyatlar va



tillarda mavjud, ammo har bir til va madaniyatda u o'ziga xos semantik tuzilishga ega bo'lishi mumkin [1].

METODOLOGIK TAHLIL.

“Vaqt” so'zi tilshunoslikda abstrakt, noaniq, va o'zgaruvchan tushuncha sifatida qaraladi. Leksik ma'noda bu so'z davr, payt, yoki o'tgan va kelajakdagi vaqt oralig'ini ifodalaydi. “Vaqt” so'zi chegaralanmagan va samaradorlikka aloqador bo'lgan tushuncha sifatida ishlatiladi. Abstrakt ma'noda “Vaqt” so'zi biror narsaning davomi yoki tezligini ko'rsatishda ishlatiladi, masalan: “Vaqt o'tmoqda” yoki “Vaqt tez o'tadi”. Vaqtni rejalashtirish va samaradorlikni anglatuvchi “Vaqtni behuda sarflama”, yoki “Vaqtni tejash” kabi ifodalar vaqtni to'g'ri boshqarish va uni oqilona ishlatish, vaqtning qiymati tushunchalarini o'z ichiga oladi. Vaqtning qiymatini anglatuvchi “Vaqt - bu pul”, “Vaqtning ketdi, baxting ketdi”, “Vaqtni qadrlang” “Yoshlikdagi vaqt qaytib kelmas”, “Talabalik oltin davrim” kabi iboralar insonlarni vaqtni qadriga etish, uni behuda sarflamaslikka chaqiruvchi oldindan xalqimizda aytib kelinayotgan pand nasihatlardir. “Vaqtni boshqarish” tushunchasi zamonaviy dunyoda muhim ahamiyatga ega bo'lib, odamlarning o'z vaqtlarini samarali rejalashtirishini anglatadi. Bu motivatsiya va muvaffaqiyatga taalluqli tushuncha sifatida ishlatiladi [2].

Har bir tilda vaqtning turli tomonlarini bildiruvchi so'zlarning boy to'plami mavjud. “Vaqt” so'zining sinonimlari va antonimlari uning leksik o'ziga xosligini yanada kuchaytiradi. “Vaqt” so'zi ifodalovchi sinonimlar: davr, o'lchov, mahal, mavrid, muddat, kezak, on, payt, soat, lahza, daqida kabi so'zlar “vaqt” so'zi bilan sinonimik aloqada bo'lishi mumkin. Har bir sinonim o'z kontekstida “vaqt” so'ziga o'xshash ma'noni ifodalasa-da, ba'zi hollarda ular an'anaviy yoki xususiy ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, davr va zamon — bu ko'proq tarixiy yoki ijtimoiy kontekstda ishlatiladi, “soat” esa aniq bir vaqt o'lchovining ifodasi sifatida ko'proq ma'noga ega. “Abadiyat”, “mangu”, “mumkin bo'lgan cheksizlik” kabi antonimlar “vaqt” so'ziga qarshi turadi, chunki vaqt odatda cheklangan va o'tib boradigan bir narsa sifatida ko'riladi. “Vaqt” so'zi vaqtning o'tishi yoki cheklanishi bilan bog'liq bo'lgan antitezni yaratadi [11].

“Vaqt” so'zi tilshunoslikda kontekstga qarab turlicha ma'no kasb etadi. U real va metaforik kontekstlarda ishlatiladi. Real kontekstda kelganda vaqt so'zi aniq o'lchovlarga asoslangan bo'ladi, masalan: “Bugun soat 3:00 da uchrashamiz” yoki “Shu vaqt ichida barcha ishlar hal bo'lishi kerak”. Bu holatda vaqt — o'lchov sifatida ishlatiladi. Vaqt ko'pincha falsafiy yoki psixologik ma'nolarda ishlatiladi. Vaqtning inson hayotidagi roli, vaqtni qadrlash va vaqtning inson psixologiyasiga ta'siri haqida gapirishda bu so'z alohida ma'no kasb etadi. Masalan: “Vaqtdan unumli foydalaning, hayotingiz qadrini biling”, “Vaqtning o'zgarishi bilan insonlar ham o'zgaradi”. Bu yerda vaqt ko'proq o'zgarishlar va rivojlanishni ifodalaydi. “Vaqt o'tishi bilan” ifodasi kelajakdagi o'zgarishlarni yoki tajriba bilan ortib boradigan bilimni ifodalashda ishlatiladi. Masalan: “Vaqt o'tishi bilan odamlar yaxshiroq tushunadi”.

“Vaqt” so'zi ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'lib, uning ishlatilishi tilda ma'lum bir semantik tizimni tashkil qiladi. Ba'zi so'zlar ijobiy yoki salbiy ma'nolarni o'z ichiga olishi mumkin (masalan, “oltin yillar” va “bo'sh ketgan vaqt”). “Vaqt” so'zi turli madaniy tushunchalar (masalan, taqdir, chiziqlilik) bilan bog'lanadi.



“Vaqt” tushunchasining ingliz va o‘zbek tillaridagi semantik tuzilishini tahlil qilish, bu so‘zni har ikki tilda qanday anglash va ifodalashni, ularni qiyoslashni o‘rganishga yordam beradi.

Vaqt (Time) konsepti ingliz tilida lingvistik jihatdan juda boy va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning ifodalari tilning turli aspektlarida turlicha o‘zgaradi. Ingliz tilidagi “time” so‘zi va uning kontekstual ishlatilishi lingvistik tahlilga juda mos keladi, chunki vaqt faqat konkret o‘lchovlarga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki abstrakt, metaforik va madaniy o‘lchovlarda ham o‘z aksini topadi [6]. Ingliz tilidagi “time” so‘zi ko‘pincha abstrakt tushuncha sifatida ishlatiladi, ya‘ni vaqtni o‘lchovlar yoki biror vaqt birligi sifatida ko‘rsatishdan tashqari, u hayotdagi umumiy oqimni yoki o‘tishni ifodalaydi. Masalan: “Time flies” (Vaqt uchadi) — vaqtning tez o‘tishini anglatadi, “Time waits for no one” (Vaqt hech kimni kutmaydi) — vaqtning cheksiz va doimiy o‘tishiga ishora qiladi. Bu turdagi ifodalar metaforik foydalanishga misoldir, chunki ular vaqtni ma‘lum bir ob‘ekt sifatida tasvirlaydi, shuningdek, uning tezligi va o‘tib ketishi haqida tasavvur hosil qiladi [3,4].

Ingliz tilida “time” so‘zi ko‘pincha vaqtni o‘lchovlar orqali tushuniladi, masalan, soat, minut, sekund kabi birliklar orqali. Bu holda vaqt aniq, o‘lchangan va boshqariladigan bir narsa sifatida qaraladi. Ingliz tilida vaqtni o‘lchashda ishlatiladigan ba‘zi ifodalar:

- “What time is it?” (Soat nechchi?)
- “We have an hour of time left” (Bizda bir soat vaqt qolgan).

Bu kontekstda “time” konkret, o‘lchovli bir tushuncha bo‘lib, uning davrsizlik va davomiyligi haqida gap boradi. Ingliz tilida vaqt ko‘pincha metafora sifatida ishlatiladi, ya‘ni ma‘lum bir tushunchalarni, his-tuyg‘ularni yoki jarayonlarni tasvirlash uchun vaqtning ob‘ektiv xususiyatlaridan foydalaniladi. Quyida ba‘zi keng tarqalgan metaforik ifodalarni ko‘rib chiqamiz:

- Time is money (Vaqt — pul) — vaqtning iqtisodiy qiymatini ta‘kidlaydi.
- Running out of time (Vaqt tugamoqda) — vaqtning kamligi yoki tugashini bildiradi.
- Time is a healer (Vaqt shifokor) — vaqtni dardni, og‘riqni yoki qayg‘uni yengillashtiruvchi element sifatida tasvirlaydi.
- Time is a fleeting shadow (Vaqt o‘tkinchi soyadir) - vaqt, xuddi soya kabi, o‘tkinchi va doimiy harakatda ekanligini ko‘rsatadi,
- Time is a relentless river (Vaqt tinimsiz daryo) - vaqt daryoga qiyoslanadi, uning davomiyligi, to‘xtovsiz oqimi, xuddi o‘z yo‘lidan to‘xtamaydigan, kelajak sari o‘z yo‘lida hamma narsani olib ketuvchi daryoga o‘xshatiladi.
- Time is a silent thief (Vaqt jim o‘g‘ri) - vaqt yashirin qaroqchi sifatida tasvirlanadi, ko‘pincha kech bo‘lgunga qadar qanchalar o‘g‘irlanganini, hayotdan lahzalar, kunlar va yillarni olib qo‘yishini anglatadi [7].

Bunday metaforalar abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish va g‘oyalarni qisqa va samarali tarzda ifodalash uchun ishlatiladi.

Ingliz tilida “time” so‘zi ham keng va ko‘p ma‘nolarga ega:

- Ob‘ektiv vaqt tabiat hodisasi sifatida anglashni bildiradi, ya‘ni vaqtning o‘zgarishi va tabiiy qismlar (kun, tun, yil, fasllar) bilan bog‘liq bo‘lgan tushuncha.
- Subyektiv vaqt insonning vaqtni qanday his etishini ifodalaydi. Misol uchun, “Time flies” (Vaqt uchib ketadi) yoki “Time drags” (Vaqt juda sekin o‘tadi) kabi ifodalar.



- O'lchov vaqti o'lchash birligini ifodalashda ishlatiladi. Masalan, "It's time to go" (Borish vaqti keldi), "Have a good time!" (Soat nechchi?)
- Ijtimoiy vaqt: Bu yerda vaqt jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy normalar va tuzilmalar bilan bog'liq, masalan, "working hours" (ish soatlari), "leisure time" (dam olish vaqti), "free time" (bo'sh vaqt).

Ingliz tilidagi "time" tushunchasi ham ko'plab qatlamlarga ega bo'lib, u ba'zida vaqtni hissiy, ba'zida esa aniq, o'lchovli nuqtai nazardan ifodalaydi. Ingliz tilida "Vaqt" tushunchasiga oid ko'pgina o'xshatishlar mavjud [8]. O'xshatish - bu "like" yoki "as" so'zlari yordamida ikki xil narsani taqqoslaydigan nutq shakli. O'xshatish uchun umumiy sifat yoki xususiyatni ta'kidlash uchun "like" yoki "as" so'zlarini ishlatish orqali yasaladi.

➤ Time is like a river, constantly flowing and never stopping - Vaqt doimo oqadi gan, hech qachon to'xtamaydigan daryoga o'xshaydi.

➤ Time is like sand slipping through one's fingers, impossible to hold onto - Vaqt insonning barmoqlari orasidan sirg'alib o'tayotgan qumga o'xshaydi, uni ushlab bo'lmaydi.

➤ Time is like a shadow, always present but constantly changing - Vaqt soyaga o'xshaydi, u doimo mavjud, lekin doimo o'zgarib turadi [5].

O'zbek va ingliz tillarida vaqt tushunchasi ko'plab umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, har bir tilda uning semantik tuzilishida ba'zi farqlar mavjud. O'zbek tilida vaqt ko'proq ijtimoiy va madaniy kontekstda ishlatilsa, ingliz tilida "time" so'zi ko'proq umumiy va universal tushuncha sifatida ishlatiladi. O'zbek tilida "vaqt o'zgaradi", "vaqt tugadi", "vaqtni behuda sarfladim" kabi iboralar mavjud bo'lsa, ingliz tilida ham "time is money" (vaqt pulga teng), "time waits for no one" (vaqt hech kimni kutmaydi) kabi metaforik iboralar ko'p uchraydi. O'zbek tilida vaqtning o'tishi tezligi yoki sekinligi ko'proq hissiy va shaxsiy tajriba orqali ifodalanadi. Ingliz tilida esa bu ko'proq tasavvur etilgan obyektiv vaqtga asoslanadi, lekin "time flies" kabi iboralar shaxsiy hissiyatga asoslangan.

"Vaqt" tushunchasi o'zbek maqollarida ko'pincha hayotiy haqiqatlarni, tajriba va hikmatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. U ko'pincha insonning vaqtni qanday ishlatishi, qadriyatlar va mehnat bilan bog'liq tushunchalarni aks ettiradi. Quyidagi maqollarda vaqt tushunchasining ishlatilishini ko'rish mumkin:

- Vaqt kelsa, ish o'z-o'zidan bo'ladi - bu maqol vaqtning o'zgaruvchanligini va har narsaning o'z vaqtida bo'lishini ta'kidlaydi. U, shuningdek, insonning sabr va to'g'ri vaqtni kutish zaruratini bildiradi.
- Vaqt — eng katta dars - bu maqol vaqtning inson hayotida o'rganish, tajriba orttirish va hayotiy saboqlar olish uchun eng yaxshi vosita ekanligini ifodalaydi.
- Vaqtni o'z vaqtida ishlat, vaqt kechikmasin - bu maqol vaqtni behuda sarflamaslikni, uni to'g'ri va samarali ishlatish zaruratini ta'kidlaydi.
- Bir kun kelib, vaqt o'zini ko'rsatadi - maqol vaqt o'zining ahamiyatini va haqiqatini vaqt o'tishi bilan namoyon qilishini bildiradi. Bu shuningdek, hozirgi holatni baholashda sabrli bo'lishni anglatadi.
- Vaqtni sarflama, umrni sarflamaysan - bu maqolda vaqtni qanday ishlatish, umrning qanday o'tishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. U insonni vaqtni qadrlashga undaydi [11].



Bu maqollar “vaqt” tushunchasini nafaqat fizik jihatdan, balki psixologik, ijtimoiy va falsafiy nuqtai nazardan ham ko‘rib chiqadi. Vaqtning qadri, uni to‘g‘ri va samarali ishlatish hayotiy hikmatlar va tajribalar orqali o‘z ifodasini topadi.

XULOSA.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin, ma‘lum bo‘lishicha, vaqt tushunchasi til va madaniyatga ko‘ra turlicha ifodalanadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi “vaqt” va “time” so‘zlari, garchi umumiy semantik qatlamlarga ega bo‘lsa-da, ularning ishlatilishidagi madaniy va tilshunoslik xususiyatlari farq qiladi. O‘zbek tilida vaqt ko‘proq ijtimoiy va madaniy kontekstga asoslanadi, va ko‘plab xalq maqollari va iboralarida vaqtning qadri va uning oqilona boshqarilishi ta‘kidlanadi. Ingliz tilida esa vaqt ko‘proq universal, o‘lchovli va metaforik ma‘nolarda ishlatiladi, uning o‘tishi tezligi yoki sekinligi ko‘pincha subyektiv his-tuyg‘ularga asoslanadi.

Vaqt tushunchasi ikki tilda ham hayotiy, falsafiy va ijtimoiy ahamiyatga ega, lekin har bir tilda bu tushuncha o‘ziga xos semantik tuzilishga ega bo‘lib, vaqtni qanday anglash va ifodalash madaniyatga, tarixiy tajribalarga va ijtimoiy tizimlarga bog‘liqdir. Bunday tahlil tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya sohalarida vaqt tushunchasining murakkab va ko‘p qirrali tabiati haqida yanada chuqurroq tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

References:

1. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq paremlarining sinonimik lug‘ati. – Toshkent, 2023. – B.6.
2. Bobojonov, K. (2019). O‘zbek tilida frazeologizm va uning ma‘nolari. Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақолларининг шаклланиши масалалари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б.53-93.
4. Salievna, R. U. (2022). The role of metaphors in the description of motherhood in anne enright's short stories. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(4), 208-213.
5. Belyaev, A. V. (2017). Semantik tahlil va zamon tushunchasi. Moskva: Izd. “Lingvistika”.
6. Рахимова, У. С. ЭНН ЭНРАЙТ ХИКОЯЛАРИДА ОНАЛИКНИ ТАСВИРЛАШДА МЕТАФОРЛАР ЎРНИ. “ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ” 7-ҚИСМ, 21.
7. Carter, R., & McCarthy, M. (2014). Vocabulary and language teaching. Routledge.
8. Langacker, R. W. (2008). Cognitive Grammar: A Basic Introduction. Oxford University Press.
9. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
10. Fillmore, C. J., & Atkins, B. T. (1992). Toward a frame-based lexicon: The semantics of RISK and its neighbors. In *Frames, Fields, and Contrasts: New Essays in Semantic and Lexical Organization*.
11. Evans, V., & Green, M. (2006). Cognitive Linguistics: An Introduction. Routledge.
12. Wierzbicka, A. (1992). Semantic Primitives. Oxford University Press.
13. Amosova N.N. Ingliz frazeologiyasining asoslari - L.: Leningrad davlat universiteti, 1963 yil